



**INGLIZ TILINI O'RGATISHDA ONLAYN TA'LIM
PLATFORMALARI VA O'QUV RESURLARIDAN SAMARALI
FOYDALANISH USULLARI**

Toshpo'latova Maxbuba Ikromovna

Farg'ona davlat texnika universiteti
O'zbek tili va tillarni o'rgatish kafedrası
katta o'qituvchi

makhbuba1011@gmail.com

Tel: 998 916791908

Annotatsiya: Raqamli dunyoda til o'rganish jarayoni yangicha ko'rinishga ega bo'ldi. Onlayn ta'lim platformalari va turli o'quv resurslari yordamida til o'rgatish endi nafaqat amaliy tajribaga, balki nazoratli, maqsadli va moslashuvchan jarayonga aylandi. Bu maqolada til o'rgatishda online vositalarning qanday qo'llanilishi mumkinligi, ularning afzalliklari va cheklovlari, hamda foydali amaliy tavsiyalar haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: onlayn ta'lim, onlayn vosita, o'quv resurslari, ta'lim platformalari

Аннотация В цифровом мире изучение языка приобрело новое измерение. Благодаря онлайн-платформам и различным образовательным ресурсам, изучение языка стало не только практическим опытом, но и контролируемым, целенаправленным и гибким процессом. В этой статье обсуждается использование онлайн-инструментов в изучении языка, их преимущества и ограничения, а также даются некоторые полезные практические рекомендации.

Ключевые слова: онлайн-образование, онлайн-инструменты, учебные ресурсы, образовательные платформы

Abstract: In the digital world, language learning has taken on a new look. With the help of online learning platforms and various learning resources, language learning has now become not only a hands-on experience, but also a controlled, purposeful and flexible process. This article discusses how online tools can be used in language learning, their advantages and limitations, as well as useful practical recommendations.

Keywords: online learning, online tools, learning resources, learning platforms

Bugungi raqamlashgan davrda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining tez sur'atlarda rivojlanishi davr talablaridan biri bo'lib, uning imkoniyatlaridan foydalanib ta'lim jarayonini yanada yuksaltirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. XXI asr — texnologiyalarning yuqori rivojlanish davri bo'lib, bugungi yoshlar nafaqat zamonning ruhiga mos keladigan, balki axborot olamidagi yutuqlarga mos qadam tashlayotgan shaxslardir [1]. Shu sababli yosh avlodga ta'lim berish jarayoniga yangi yondashuvlar zarur bo'lmoqda. Bugungi yoshlarni til o'rganish imkoniyatlari turli xil onlayn platformalar va juda ko'plab resurslar mavjudligi

sababli tobora oshib bormoqda. Onlayn ta'lim (e-learning) raqamli texnologiya yordamida taqdim etiladigan pedagogikaning har qanday shaklini tavsiflaydi. Bunday usullar vizual grafika, matn, animatsiya, video va audioni o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, onlayn Pedagogika, shuningdek, guruhli o'rganishni va muayyan sohalaridagi o'qituvchilarning yordamini osonlashtirishi mumkin [2]. Shuni ta'kidlash kerakki onlayn ta'lim platformalari ta'lim jarayonini kengaytiradi. Yuqorida aytilgandek ular o'z ichiga video darslar, interfaol mashqlar, ovozli va matnli materiallar, imtihonlar, amaliyotlar kabi turli vositalarni jamlab beradi.

Til o'rganishda bu platformalar odatda turli darajali kurslar, vazifalar va belgilangan maqsadlar (masalan, eng ko'p tarqalgan so'zni o'zlashtirish yoki kundalik suhbat uchun zarur bo'lgan iboralarini o'rganish) orqali talabalarning o'zlashtirish jarayonini izchil kuzatishga yordam beradi. Mustaqil o'rganish uchun ham qulay bo'lgan muhit yaratiladi: talaba o'z tartibini belgilaydi, o'ziga mos tezlikda harakat qiladi, o'z qobiliyatiga moslashtirilgan materiallar bilan ishlaydi.

O'quv resurslari keng ko'lamli bo'lib, ko'rinishlar xilma-xil: audio materiallar, videolar, matnli darsliklar, interaktiv o'yinlar, so'z boyligini kengaytirish uchun ko'rsatilgan ma'lumotlar, yozma mashqlar, nutq uchun qilingan treninglar va boshqalardan iboratdir. Til o'rganishda sifatli resurslar muhim o'rin tutadi, chunki ular nafaqat nazariy bilimlarni shakllantiradi, balki tilning turli kontekstlarda (rivojlangan so'z boyligi, mustahkam grammatika, talaffuz, dialoglar) ishlatilishi ko'rinishida amaliy ko'nikmalarni ham rivojlantiradi. Onlayn resurslar yordamida o'qituvchi talabalar shaxsiga takliflar bera oladi, masalan, o'tilayotgan mavzu bo'yicha o'quv rejasini talaba ehtiyojlariga mos ravishda moslashtirishi, qo'shimcha videolar, maqolalar yoki dialoglarni qo'llay olishlari mumkin. Interaktiv platformalar yordamida darslar yanada vizual va amaliy bo'ladi: tasvirlar, simulatsiyalar, ko'rgazmali materiallar ta'lim mazmunini mustahkamlab beradi hamda onlayn hamkorlik va guruh ishlari uchu imkoniyat yaratiladi. O'quvchilar birga ishlash, fikr almashish va loyiha ustida hamkorlik qiladi, natijada talaba dunyoning istalgan joyidan, istalgan vaqtda darslarga kirish va fikr almashish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bundan tashqari o'zaro aloqaning soni va sifati ko'payadi, chunki onlayn muhitda qatnashuvchilar turli shakllarda fikr almashishi, baholashlar va izohlar orqali o'zaro o'rganishni kuchaytiradi. Shuningdek, resurslar boyligi sababli erkin foydalanish mumkin bo'lgan audiovizual materiallar, autentik matnlar, real hayotiy suhbatlar til o'rganishni yanada maroqli qiladi.

Shu bilan birga, har qanday vosita kabi onlayn ta'lim platformalarning ham cheklovlari bor. Birinchi navbatda, motivatsiya va mustaqillik talablari yuqori bo'ladi. Talaba muntazam ravishda shug'ullanishi, turli xil keraksiz saytlarga chalg'imag o'rganishni davom ettirishi kerak, aks holda rivojlanish sekinlashadi. Yana bir jihat, texnik barqarorlik va infratuzilma muammolaridir: internetga kirish barqaror bo'lmasa, darslar uzilishi mumkin, turli qurilmalardan foydalanish noqulay o'rganishga olib keladi. Resurslarning sifatli tanlanishi ham til o'rganishning asosiy jihatlaridan biridir. Yomon yoritilgan video, noto'g'ri talaffuzga asoslangan materiallar talabaning noto'g'ri yondashuvga olib kelishi mumkin. Shuning uchun o'qituvchilar sifatli kontent tanlash, ishonchli manbalardan foydalanish va

talabalarning ishlarini doimiy ravishda ko‘rib chiqib borishlari muhim ahamiyatga ega.

Til o‘rgatishda online platformalar va resurslardan samarali foydalanilgandagina kutilgan natijalarga erishamiz. Birinchidan, o‘qituvchi o‘z darsini maqsadga yo‘naltirishi kerak, darslar rejasini tuzishda aniq natijalarga erishish uchun kutilgan natijalarni belgilab qo‘yish maqsadga muvofiqdir. Til o‘rganishga mos platforma yoki resurslarni to‘g‘ri tanlash til o‘rganish samaradorligini yanada oshiradi. Har bir mavzu uchun eng samarali vositalarni aniqlash: o‘quvchilarning talablariga mos keladigan audio-resurslar, vizual materiallar, yozma mashqlar yoki interaktiv o‘yinlarni tanlash ham e‘tiborga molikdir [3]. Raqamli davrning paydo bo‘lishi ta‘limda inqilob qildi va Coursera, edX va Duolingo kabi onlayn o‘quv platformalarini yaratdi. Ushbu platformalar o‘quvchilarga til ko‘nikmalarini egallash uchun moslashuvchan va qulay imkoniyatlarni taqdim etadi [4].

Quyidagi onlayn platformalar va o‘quv resurslarini umumiy til o‘rganish va til ko‘nikmalarini rivojlantirish, shuningdek texnika fanlari yo‘nalishlarida ingliz tilini o‘rganishda katta foydasi bor. Ushbu platformalarning har biri turli ehtiyojlarga yani umumiy ingliz tilini mustahkamlash, texnik (ESP) yo‘nalishlari uchun so‘z boyligini kengaytirish, yozuv va muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun mos keladi.

1. Umumiy ingliz tili va til ko‘nikmalarini rivojlantirish
 - Coursera: Tekshirish, ilmiy va texnik kontekstda ingliz tilini o‘rganish bo‘yicha kurslar (masalan, Academic English, Technical Writing).
 - edX: Academic English, Professional Writing kabi kurslar; universitet darajasidagi kurslar yordamida ilmiy matnlar bilan tanishish oson.
 - Udemy: Texnik yozuv, til amaliyoti, ingliz tili bo‘yicha keng qamrovli kurslar.
 - FutureLearn: ESP (English for Specific Purposes) va Professional English kurslari; o‘quv faoliyatida amaliy mashqlar.
 - Khan Academy (Ingliz tili bo‘limi): Asosiy grammatika va yozuv ko‘nikmalarini mustahkamlash uchun bepul videolar.
2. Texnik fanlar uchun maxsus ingliz tilini o‘rganish (ESP)
 - Cambridge English for Engineering / Cambridge English for the IT Industry (nashriyotlar tomonidan chiqarilgan maxsus kurslar) – muayyan soha terminologiyasi, o‘qish va yozuv ko‘nikmalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan.
 - Anki / Quizlet: texnik tematik kartochkalar – o‘qish materiallari asosida yangi atamalarni yodlash.
 - Vocabulary.com / Memrise: ilmiy-texnik mavzular uchun maxsus leksikalarni o‘zlashtirish.
 - Grammarly / ProWritingAid: ilmiy maqola yoki texnik hisobot yozishda grammika, uslub va tashqi ko‘rinishni tekshirish.
 - Purdue Online Writing Lab (OWL): ilmiy maqola tuzilishi, yozuv uslublari, sitatsiya qoidalari bo‘yicha manbalar.

Bundan tashqari o‘zaro aloqaga alohida e‘tibor berish yani guruh chatlari, videokonferensiyalar, yozma izohlar yordamida talabalarning bir-biri bilan

muloqotini mustahkamlab borish ham amaliy natija beradi. Shuningdek talabalar bilimni ularning darajasiga mos ravishda oddiy qisqa testlar, qisqa yozma ishlar, talaffuz uchun yozuvli tahlillar orqali muntazam baholab borish kerak. Bu ularga o‘z rivojlanishlarini ko‘rishga katta yordam beradi. Shunday qilib, til o‘rgatishda onlayn ta‘lim platformalari va turli o‘quv resurslarining roli katta. Ular o‘quvchilarga moslashuvchanlik, izchil kuzatuv, o‘zaro aloqani kuchaytirish va talabalarining qobiliyatini kengaytirish imkonini beradi. Shu bilan birga, muvaffaqiyat uchun sifatli kontent tanlovi, talabalar ehtiyojiga moslashtirish, motivatsiyani qo‘llab-quvvatlash va xavfsizlik masalalariga jiddiy e‘tibor berish zarur. Yaxshi reja, sifatli materiallar va doimiy aloqada bo‘lgan jamoa til o‘rganish samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Til o‘rganish – doimiy amaliyot, qiziqish va izchillikning uyg‘unlashuvi; onlayn vositalar esa bu jarayonni yanada boyitadi va samarali qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Пармонов, А. А. Чет tilni o‘rganishda axborot texnologiyalarining ahamiyati / А. А. Пармонов. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2017. — № 4.2 (138.2). — С. 39-40. — URL: <https://moluch.ru/archive/138/39051>.
2. Zulaikha Mohd Basar , Azlin Norhaini Mansor . The Effectiveness and Challenges of Online Learning for Secondary School Students – A Case Study. Asian Journal of University Education (AJUE) Volume 17, Number 3, July 2021
3. Toshpulatova, M., & Ilhomjonova, R. (2023). Teaching and learning English through digital technology. *Engineering problems and innovations*
4. Littlejohn, A., & Pegler, C. (2014). Preparing for Blended E-Learning. Routledge